

## **“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki bank aksiyadorlarining Yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qiladi**

### **Hurmatli aksiyadorlar!**

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining Yillik umumiy yig‘ilishi **2019 yilning 27 iyunida** quyidagi manzil bo‘yicha o‘tkaziladi: Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy, “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi binosi.

e-mail [info@kapitalbank.uz](mailto:info@kapitalbank.uz)

veb-sayt: [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz)

Ro‘yxatdan o‘tkazish soat **10.30** da boshlanadi.

Bank aksiyadorlarining Yillik umumiy yig‘ilishini o‘tkazish soat **11.00** da boshlanadi.

Aksiyadorlarning Yillik umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bank aksiyadorlari reyestrini tuzish sanasi – **2019 yil 21 iyun.**

### **Kun tartibi:**

1. “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining Yillik umumiy yig‘ilishini o‘tkazish reglamentini tasdiqlash haqida.

2. “Kapitalbank” ATB Kengashi 2018 yilgi faoliyati yakunlariga bo‘yicha “Kapitalbank” ATB Kengashi raisi hisobotini ko‘rib chiqish va 2018 yilda “Kapitalbank” ATB Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarini tasdiqlash haqida.

3. Bank Boshqaruvi raisining “Kapitalbank” ATBning 2018 yilgi moliyaviy- xo‘jalik faoliyati yakunlari to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqish haqida.

4. “Kapitalbank” ATB Taftish komissiyasining bankning 2018 yilgi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari bo‘yicha xulosasini ko‘rib chiqish haqida.

5. “Kapitalbank” ATBning 2018 yilgi moliyaviy hisoboti ishonchliligi haqidagi auditorlik xulosasini tasdiqlash haqida.

6. “Kapitalbank” ATBning 2018 yil yakunlariga ko‘ra yillik hisoboti, buxgalteriya balansi hamda foydalari va zararlari to‘g‘risidagi hisobotni tasdiqlash haqida.

7. 2018 yilgi moliyaviy-xo‘jalik faoliyat yakunlariga ko‘ra sof foydani taqsimlashni tasdiqlash to‘g‘risida.

8. Kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olingan ishonchsiz aktivlarni va boshqa qarzdorlikni hisobdan chiqarish bo‘yicha qarorni tasdiqlash haqida.

9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2018 yil yakunlariga ko‘ra qo‘llanilgan jarimalar masalasini ko‘rib chiqish haqida.

10. “Kapitalbank” ATB va “KPMG Audit” AJ MCHJ o‘rtasida 2018 yil 16 noyabrda tuzilgan S-UZA-18-00034-sonli shartnomaga qo‘shimcha bitim tuzish to‘g‘risida bank Kengashi qarorini tasdiqlash haqida

11. 2019 moliyaviy yilga auditorlik tashkilotini tasdiqlash hamda auditorlik xizmatlari haqining cheklangan miqdorini belgilash haqida.

12. “Kapitalbank” ATBning 2019-2021-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi rejasini tasdiqlash haqida.

13. “Kapitalbank” ATBning Tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash haqida.

14. “Kapitalbank” ATB Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida.

15. “Kapitalbank” ATB boshqaruv organlari to‘g‘risidagi Nizomlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida.

16. “Kapitalbank” ATB Kengashining “Kapitalbank” ATB Boshqaruv Raisi Sh.K. Karimbayevning vakolatlarini tugatish to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash haqida.

17. “Kapitalbank” ATB Kengashining O.R. Kimni “Kapitalbank” ATB Boshqaruv Raisi etib tayinlash to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash haqida.

18. “Kapitalbank” ATB Taftish komissiyasi a‘zolarini saylash haqida.

19. “Kapitalbank” ATB Kengashi a‘zolarini saylash haqida.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining Yillik umumiy yig‘ilishiga tayyorlangan materiallar bilan quyidagi manzil bo‘yicha tanishib chiqish mumkin: Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy, “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi binosi, 3-qavat, 36-xona. .

Izoh: Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida vakil to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ismi yoki nomi, yashash yoki joylashgan joyi, pasport ma’lumotlari) keltirilgan, yozma ravishda tuzilgan ishonchnoma asosida ishtirok etadi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.